

Qahramon marash



14:13 / 20.02.2023 1730

Qahramon marash

Kabi silkinar yuragim

to'kilar mevalar

shahidlar Allohning

shahidlar menim

och yerga ozuq gida

hali shahid bo'lmagan

shahidlar fig'onin

Allohdan emas

to'sar olamdan

qaqshayman alamdan

sevgida faryod bor
olamni kar qilgulik sassiz
ko'zlar yumuq
hayqirurlar nafassiz
sevgida fig'on bor
ey voh motam ham bor ekan sevgida
hamdard ahli jahon bor
ey voh jahon yo'q
ko'r kar ekan falak sevgida

kipriklar ko'zlarni to'sgan
nafaslar tomoqni
yo'q nafaslar titratar
yaqin yiroqni
shomu iroqni

evoh olam zilzila
banda ojiz
Qodir Qodir alhamdulillah

yuragimdan omon chiqqan meva
zikr etar Alloh ismini
o'ylab jismini

yuragimning darzi ochiq
meva dumalab chiqqan joy ochiq
ko'ksimni yorar yuragim
ko'nglim bu ochiqdan chiqar ochiqqa

ag'darilar deyman ustingga ko'k
boshim yorilmasdan oldin
qo'yar ko'ksini millatim millatdoshim
o'zi tasalli

chunki men bir o'ldim
millatim bilan birga
ki tuproq ostida nurman
millat quyoshim
tirilgum tug'ilgum
nur surdan
sur nurdan
qiyomat haj
zilzila qiyomat

chayqaldi Turkiston

Turkiston

Tur on

Qur'on tur on

kelgay
hur on
o'tgay suron
sur on
on g'animat qon qalqinar silqinar
mening yelkam (turkcha) jahon
turkcha silkinar
boshing omon bo'lsin deyman o'zimga millatimga
bo'lsin deyman boshing sog' omon!

Yo'ldosh Eshbek

«Qahraman marash zilzilasida shahid bo'lganlar ruhiga bag'ishlanadi...»

Kahramanmaraş

gibi silkinir yüreğim
dökülür meyveler
şehitler Allah'ın
şehitler benim
aç yere azık gıda

henüz şehit olmamış
şehitlerin figanını

Allah'tan deęil

keser âlemden

kıvranırim elemnden

sevgide feryat var

âlemi saęır eden sessiz

gözler yumuk

haykırırlar nefessiz

sevgide figan var

eyvah matem de varmış sevgide

hemdert ehli cihan var

eyvah cihan yok

kör ve saęırmış felek sevgide

kirpikler gözleri kapatmış

nefesler boęazı

hayır, nefesler titretir

yakın uzaęı

Şam ve Irak'ı

eyvah âlem zelzele

kul aciz

Kadir, Kadir elhamdülillah

yüreğimden sağlam çıkan meyve

zikreder Allah ismini

düşünerek cismini

yüreğim yaralı

meyveler yuvarlanıp çıkar açıktan

göğsümü yarar yüreğim

gönlüm çıkar açığa bu açıktan

sanki yıkılır üstüme gök

başım yarılmadan önce

gerer göğsünü milletim millettaşım

eder kendini teselli

çünkü ben de öldüm

milletimle birlikte

ki toprak altında nurum

millet güneşim

dirilişim, doğuşum

nur surdan

sur nurdan

kıyamet hac

zelzele kıyamet

çalkalandı Türkistan

Türkistan

Tur an

Kur'an tur an

gelecek

hür an

geçecek bu gulgule

an ganimet kan kalkınır silkinir

benim omzum (Türkçe) cihan

Türkçe silkinir

başın sağ olsun diyorum kendime milletime

olsun diyorum başın sağ selamet!

Özbek Şair Yoldaş Eşbek

Tercüme Eden: Hüseyin KABA